

## CHO‘LPON SHE‘RIYATIDA DAVR VOQEALARINING BADIY IFODASI

**Berkiyeva Marhabo Ravshanbek qizi**

Farg‘ona davlat universiteti 3-kurs talabasi

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada Abdulhamid Cho‘lpon she‘riyatida davr voqealarining badiiy ifodasi tahlil qilinadi. Adib ijodida XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, milliy uyg‘onish g‘oyalari va xalq hayotidagi murakkab o‘zgarishlarning aks etishi yoritiladi. Muallif tomonidan Cho‘lpon she‘rlarida tarixiy voqealarning poetik talqini, obrazlar tizimi, ramziy ifodalar hamda lirik qahramon kechinmalari asosida ochib beriladi. Shuningdek, shoirning davr ruhini badiiy vositalar orqali ifodalash mahorati va uning o‘zbek adabiyotidagi o‘rni baholanadi. Maqola davomida she‘riy matnlar tahlili asosida muhim ilmiy xulosalar chiqariladi.

**Kalit so‘zlar:** Cho‘lpon, she‘riyat, davr voqealari, badiiy ifoda, milliy uyg‘onish, lirik qahramon, tarixiy jarayon, poetik uslub, obrazlar tizimi.

### **Abstract:**

This article analyzes the artistic expression of the events of the era in the poetry of Abdulhamid Cholpon. The writer's work reflects the socio-political processes of the early 20th century, the ideas of national revival, and complex changes in the life of the people. The author reveals the poetic interpretation of historical events in Cholpon's poems, based on the system of images, symbolic expressions, and the experiences of the lyrical hero. The poet's skill in expressing the spirit of the era through artistic means and his place in Uzbek literature are also evaluated. The article draws important scientific conclusions based on the analysis of poetic texts.

**Keywords:** Chulpan, poetry, events of the period, artistic expression, national revival, lyrical hero, historical process, poetic style, system of images.

### **Kirish:**

XX asr boshlarida o‘zbek adabiyoti tub burilishlar davrini boshdan kechirdi. Bu davr ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, milliy uyg‘onish jarayonlari va xalq ongidagi yangilanishlar bilan xarakterlanadi. Ana shunday murakkab tarixiy sharoitda ijod qilgan Abdulhamid Cho‘lpon o‘z she‘riyati orqali davr voqealarini chuqur badiiy talqin etgan ijodkorlardan biridir. Shoir asarlarida zamon ruhiyati, ijtimoiy ziddiyatlar hamda millat taqdiri bilan bog‘liq muammolar o‘ziga xos poetik vositalar orqali ifodalanadi. Cho‘lpon she‘riyati nafaqat lirik kechinmalar ifodasi, balki muayyan tarixiy davrning badiiy hujjati sifatida ham ahamiyatlidir. Unda davr voqealari, xalqning orzu-intilishlari, erkinlik va mustaqillik g‘oyalari chuqur falsafiy hamda obrazli tarzda aks etadi. Shu bois shoir ijodini davr voqealari bilan bog‘liq holda o‘rganish uning badiiy mahorati va ijtimoiy qarashlarini yanada to‘liqroq anglash imkonini beradi. Mazkur maqolaning maqsadi — Cho‘lpon she‘riyatida davr voqealarining badiiy ifodalanish xususiyatlarini tahlil qilish, shoirning poetik uslubi va obrazlar tizimi orqali tarixiy haqiqat qanday aks ettirilganini ochib berishdan iborat.

Cho‘lpon XX asr o‘zbek adabiyotining eng mashhur namoyondalaridan biridir. Uning hayoti va ijodiy faoliyati adabiyotimizning eng yorqin sahifalaridan birini tashkil qiladi. U badiiy ijodning deyarli hamma turi bilan faol shug‘ullandi. She‘r, hikoya, roman, drama, tanqid, tarjima-hamasida ijod etdi. Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon adabiyotning juda ko‘p tur va janrlarida samarali ijod etgan bo‘lsa-da, shoir sifatida ko‘proq shuhrat topdi. Uning o‘z davrida to‘plamlarda bosilib chiqqan va bugun ma‘lum bo‘lgan she‘rlari u qadar ko‘p emas. Lekin ular o‘zbek ziyolilariga chaqmoqdek ta‘sir qilgan va butun adabiyotni o‘z izmiga olgan edi. 20-yillardagi o‘zbek she‘riyati chinakam Cho‘lpon davridir. U she‘riyatga erta kirib keldi. Ilk she‘rlaridanoq millat shoiri sifatida tanildi. yangi o‘zbek she‘riyatining asoschisi bo‘lib tarixga kirdi. U an’anaviy mumtoz

she'riyatimizni isloh qildi. Undagi sirlilik, qo'lyetmaslik, tantanavorlik, nuqtapardozlik o'rniga samimiy, tabiiy, jonli ifoda usulini olib kirdi. Ma'shuqa tavsifi va hol sharhini yangi asoslarga ko'chirdi. Voqelik uning uchun ham asosiy tasvir obyekti, ham uni baholaydigan mezon edi. She'riyat hech qachon kundalik xalq hayotiga bu qadar yaqin kirib bormagan edi. Masalan, bizga ma'lum bo'lgan va matbuotda chop etilgan ilk she'ri "Turkistonli qardoshlarimizga" o'ksik vatan – Turkiston jarohatlari haqida edi. Ushbu she'rida ma'rifatsizlik balosiga yo'liqqan, foyda-zararni unutgan, yaxshi - yomonni tanimaydigan, tor manfaatlari doirasida ko'milib qolgan, topganini boshqalarga berib, o'zi yalong'och qolgan, bir so'z bilan aytganda, millat sifatida adoyi tamom bo'lgan bizning xalq haqida edi.

Xalq hayotida yuz berayotgan har bir voqea-hodisalar Cho'lpon she'riyatida o'sha zahotiy o'z aks sadosini topdi. Bunga misol tariqasida "Xalq", "Ulug' yo'lda", "Qurbon" kabi she'rlarini keltirishimiz mumkin. Jumladan, "Qurbon" she'rida yozadi:

Bir yurtkim, besh yildir qonlarga belangan,

Otasi o'g'lini "dushman" deb bo'g'adir.

So'ng burda noni ham qolmasdan talangan,

Yosh go'dak bolasi: "Bir burda non!" deydir.

Ochlik ham har kuni "qurbonlik" so'raydir.

Har kuni unga ham yuzlarcha qurbonlar.

Qirilib tutalish dahshati o'raydir,

Yanami behuda gunohsiz, sof qonlar?

Sho'rolar o'z hayot falsafalari bilan Turkiston hayotini alg'ov-dalg'ov qilib yubordilar. Sinfy kurash otani o'g'ilga, akani ukaga dushman qilib qo'ydi. Bir tomonda,

erk, mustaqillik uchun ketayotgan shafqatsiz kurash, ikkinchi tomonda, ochlik-qahatlik. Bir tomonda, millat ichida yaratilgan “sinfy kurash”, ikkinchi yoqda jaholat, mutaassiblik. Xullas, to‘rt tomon ihotalangan. Shoirni bu hol larzaga soladi. U “qirilib tugalish dahshati”dan larzaga tushadi. Ushbu parcha orqali Cho‘lpon davrning qonli va notinch manzarasini, insoniy munosabatlarning buzilishini, ijtimoiy va iqtisodiy inqirozni hamda begunoh insonlar fojeasini nihoyatda qisqa, lekin kuchli obrazlar orqali ifodalaydi. Badiiy jihatdan esa metafora (“qonlarga belangan”), kontrast (ota–o‘g‘il, katta fojea–go‘dakning oddiy ehtiyoji), va ramziy obrazlar (non, go‘dak) juda mahorat bilan qo‘llangan.

Ayni paytda, bu qarashlarning har biri hayot-mamot kurashi edi. Biri ikkinchisi bilan chambarchas bog‘lanib ketgan edi. Lekin ahamiyatiga ko‘ra eng muhimi istiqlol, erk uchun ketayotgan urush edi. Shoir 1920-yil 10-avgustda yozilgan quyidagi she‘rini “Ulug‘ yo‘lda” deb nomlagani bejiz emas:

Yo‘limizda cho‘llar, suvlar, dengizlar,  
Bosuvchisin tanib bo‘lmaslik izlar.  
Shu izlarni bosib, dengizlar kechib,  
Buyuk amal bilan boramiz bizlar!

Yurakdagi saqlab borgan amallar  
Yo‘llardagi dengizlardan ulug‘roq;  
Ezilganlar tilak tilar bu yo‘li  
Burungidan to‘lug‘roq,  
Mahkam qilib bog‘lanilgan kamarlar!

– Tezrak!

– Qanot!

Qushlar yanglig‘ uchayliq,  
Keng cho‘llardan, dengizlardan kechaylik,  
Sharqning eski chigalini yechaylik!.

She’rda maqsad u qadar pardalangan emas. Ulug‘ yo‘l-ozodlik yo‘li. Suvlar, dengizlar, cho‘llar-bu yo‘ldagi qiyinchiliklar. Buyuk amal-buyuk kurash. Yuraklarda saqlangan amallarning dengizlardan ulug‘ligi sabotga, qat’iyatga ishora. Tilakning burungidan to‘liqligi-bu kurashning oldingilariga o‘xshamaganligi. Kamarlarning mahkam bog‘lanilib, shitob istash kurashning shiddatini anglatadi. Bu kurashning shiddati va ahamiyati haqida shoir, umuman, tez-tez eslatib turadi. She’rdagi Sharqning eski chigali esa Ko‘hna Turkiston istiqlolidir.

1921-yilda Buxoroda yozilgan “Xalq” she’ri shoir fikr-qarashlarini aniqlashda benihoya muhim ahamiyatga ega. Muallif, birinchidan, xalqning buyuk kuch ekanligini yaxshi anglaydi. Ikkinchidan, o‘lkaning ozod bo‘lib, mustaqillik olishini uning istagi hisoblaydi. Uchinchidan, ijod ahlini uning bilan hamisha birga bo‘lishga, o‘zi aytmoqchi, “quchoq ochib xalq ichiga” kirishga undaydi:

Xalq dengizdir, xalq to‘lqindir, xalq kuchdir,  
Xalq isyondir, xalq olovdir, xalq o‘chdir...  
Xalq qo‘zg‘alsa, kuch yo‘qdirkim, to‘xtatsin,  
Quvvat yo‘qkim, xalq istagin yo‘q etsin!

Xalq isyoni saltanatni yo‘q qildi,  
Xalq istadi: toj va taxtlar yiqildi...

Xalq istagi: ozod bo‘lsin bu o‘lka,  
Ketsin uning boshidagi ko‘lanka.  
Bir qo‘zg‘alur, bir ko‘pirar, bir qaynar,  
Bir intilur, bir hovliqar, bir o‘ynar,  
Yo‘qlikni-da, ochlikni-da yo‘q etar,  
O‘z yurtini har narsaga to‘q etar...

Butun kuchni xalq ichidan olaylik,  
Quchoq ochib xalq ichiga boraylik!

Ko‘ringanidek, shoir xalqning buyuk qudratini tavsiflash bilangina cheklanmayapti. Bu qudratning fe‘l-sajiyasiga ham ishora qilmoqda. Uning goh qo‘zg‘alib, ko‘pirishi, goh qaynab, intilishi, goh hovliqib o‘ynashi Pushkinning bir mahallar 1825-yilgi dekabristlar qo‘zg‘oloni munosabati bilan yozilgan, dengiz po‘rtanasiga xitob qiluvchi “Alvido, zo‘r qudrat, asov g‘alayon!” satrini yodga soladi. Darhaqiqat, har bir isyon, qo‘zg‘olonda ham “asov” bir kuch bor. U kutilmagan tomonlarga burilib, “behbud“ni “nobud” qilmog‘i ham hech gap emas. U bilan kim o‘ynashmoqchi bo‘lsa, halokatga mahkumdir. Ikkinchidan, u, ma‘lum bo‘lganidek, boshqaruvga muhtoj. Shu jihatdan, xalq ichiga kirishda ikki ma‘no bor. Birinchisi, xalqdan kuch qudrat olmoq, u bilan birga bo‘lmoq; ikkinchidan, uni ezgulikka yo‘naltirmoq.

El-yurtning ozod bo‘lishi umidi bilan yashagan va ana shu umid bulog‘idan suv ichib kelgan Cho‘lpon zamonning oqishida o‘zi va yurti uchun noxush manzaralarni ko‘rdi. Bu manzaralar uni, girdob singari, o‘z qariga tortdi. Chor atrofdagi hokim kuchlar: “Yo biz bilan ketasan, yo g‘arq bo‘lasan”, deyayotgandek bo‘ldi. Ana shunday murakkab vaziyat va ruhiy holatda qolgan Cho‘lpon 1923-yilning kuz oylarida kundalik daftariga “Topshirdim o‘zimni muhitning qo‘yniga...” degan satrlarni yozib qo‘ydi. Oradan bir muncha vaqt o‘tgandan keyin bu she‘rga “Somon parcha” nomini berib, “Farg‘ona” gazetasining 29-oktyabr sonida e‘lon qildi. She‘rda ko‘z yoshlari bilan yozilgan bunday alamli satrlar bor:

Muhit girdobida bir somon parcha,  
Bir poxol cho‘pidek oqib boraman.  
Har amal, har ishni «haq» deb boraman,  
Vazminim qolmadi bir uzuk qilcha...

Muhit kuchli ekan, egdim bo‘ynimni,

Chaqmoqdek yaltirab uchish yo‘q endi.  
Yolg‘on xayollarga ko‘chish yo‘q endi.  
Oqishning yo‘liga soldim kunimni.

Na isyon, na to‘lqin, na to‘fon, na o‘t –  
Ko‘zimda og‘ir bir taslim nuri bor.  
Ey o‘tli kechmishim, yuzingni berkit!  
Senda shaytonlarning haqsiz zo‘ri bor.

Men endi xuddi bir somon parchasi...  
Lekin zo‘r dengizning cheksiz qo‘ynida  
Jimgina boradir kirsiz qo‘ynimda  
Erkin ko‘piklarning allaqanchasi!

Kirmayman ko‘chaning boshi berkiga,  
Chunki taslim bo‘ldim muhit erkiga...

Ushbu she‘r lirik qahramonning muhit va taqdir girdobidagi ojizligi, irodasizligi va muhit erkiga bo‘ysunishini ifodalovchi falsafiy asardir. She‘rda insonning jamiyat bosimi ostida o‘z irodasini yo‘qotishi, oqim bo‘ylab oquvchi poxoldek (somon parcha) tasvirlanadi, bu esa shoir ijodidagi “Muhit erkidagi tutqunlik” mavzusini ochib beradi.

### **Xulosa:**

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Abdulhamid Cho‘lpon she‘riyati XX asr boshlaridagi murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning badiiy aksidir. Shoir o‘z asarlarida davr voqealarini oddiy tasvir darajasida emas, balki chuqur falsafiy va ramziy ma‘nolar orqali ifodalagan. Uning she‘rlarida tarixiy hodisalar lirik qahramon kechinmalari, obrazlar tizimi va poetik vositalar orqali yoritilib, davr ruhiyati ta‘sirchan tarzda ochib berilgan.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, Cho‘lpon ijodida davr voqealari milliy uyg‘onish g‘oyalari, erkinlik va istiqloлга intilish, ijtimoiy adolatsizlikka munosabat kabi masalalar bilan uzviy bog‘liq holda aks etadi. Bu esa shoir she‘riyatining nafaqat badiiy, balki ijtimoiy va tarixiy ahamiyatini ham belgilaydi.

Xulosa qilib aytganda, Cho‘lpon she‘riyati o‘z davrining badiiy ifodasi sifatida alohida o‘rin egallaydi. Unda tarixiy voqealar va inson kechinmalarining uyg‘unligi orqali shoirning yuksak badiiy mahorati namoyon bo‘ladi hamda bu holat o‘zbek adabiyoti taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. B. Qosimov, SH. Yusupov, U. Dolimov, SH. Rizayev, S. Ahmedov (2004). Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti/darslik Toshkent: Ma‘naviyat
2. Naim Karimov. (2008). XX asr adabiyoti manzaralari. Toshkent: “O‘zbekiston”.
3. Naim Karimov. (1991). “Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon”. Toshkent: ”Fan” nashriyoti.
4. Naim Karimov. (2000). “Istiqlolni uyg‘otgan shoir”. Toshkent: “Ma‘naviyat”
5. Abdulhamid Cho‘lpon. (1997). Go‘zal Turkiston, she‘rlar. Toshkent “Ma‘naviyat” .